O‘zbekiston auditorlar palatasining
Metodologiya qo‘mitasi tomonidan
2026-yil 10-avgustda
“TASDIQLANGAN”

«ISLOM MOLIYASI BO‘YICHA AUDITOR»

kasbiy sertifikat kursining O‘QUV DASTURI

Sertifikatlash tizimining 2-bosqichi

Kurs hajmi: 48 auditoriya soati + 48 soat mustaqil ta’lim

Ta’lim tili: o‘zbek tili

Toshkent — 2026

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu o‘quv dasturi «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» malaka sertifikatini olishga tayyorlovchi kurslarning mazmuni, hajmi, kutilayotgan o‘quv natijalari va baholashga qo‘yiladigan eng kam talablarni belgilaydi.

1.2. Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-son Qonuni bilan mamlakatda islomiy bank faoliyati joriy etilishi munosabati bilan soha uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan. Uning huquqiy asosini «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» (O‘RQ-677) va «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» (O‘RQ-404) qonunlar, Prezidentning 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son qarori hamda Palataning islom moliyasi bo‘yicha sertifikatlash to‘g‘risidagi Nizomi tashkil etadi.

1.3. Dasturning mazmuniy asosi — AAOIFI tomonidan chiqarilgan audit standartlari, boshqaruv standartlari, moliyaviy hisobot standartlari (FAS), shariat standartlari va kasbiy etika standartining amaldagi tahrirlari.

1.4. «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» sertifikati sertifikatlash tizimining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. U «Islom moliyasi bo‘yicha buxgalter» sertifikati hamda amaldagi auditor malaka sertifikati bazasida beriladi.

1.5. Dastur akkreditatsiyadan o‘tgan barcha o‘quv tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. O‘quv tashkiloti uning asosida o‘z o‘quv dasturi va o‘quv rejasini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi; mazmunni kengaytirish huquqiga ega, biroq hech bir modulning soatlari va baholashdagi ulushi belgilangan miqdordan kam bo‘lishi mumkin emas.

1.6. Malaka imtihoni Palata huzuridagi Imtihon komissiyasi tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi; sertifikat berish to‘g‘risidagi qarorni Malaka komissiyasi qabul qiladi. O‘quv tashkiloti imtihonni mustaqil o‘tkazish yoki sertifikat berish huquqiga ega emas.

1.7. AAOIFI ning CSAA yoki CIPA sertifikatiga hamda amaldagi auditor malaka sertifikatiga ega shaxslarga ushbu sertifikat Nizomda belgilangan tartibda imtihonsiz berilishi mumkin. Bunday holda ham har yili malaka oshirish talabi saqlanib qoladi.

II. KURSNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Kursning maqsadi — islom moliya institutlarining va banklarning islomiy bo‘linmalarining shariatga muvofiqligi hamda AAOIFI standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisoboti bo‘yicha tashqi audit va mustaqil ishonch topshiriqlarini rejalashtirish, o‘tkazish, hujjatlashtirish va ular bo‘yicha xulosa berishga qodir auditorlarni tayyorlash hamda ularni malaka imtihoniga tayyorlash.

2.2. Kursning vazifalari:

- shariat talablarini ichki audit uchun tekshiruv mezoni sifatida qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;
- AAOIFI audit standartlari asosida audit dalillarini to‘plash va baholashni o‘rgatish;
- tashqi shariat auditi topshirig‘ini rejalashtirish va o‘tkazish malakasini berish;
- moliyaviy hisobotning AAOIFI FAS talablariga muvofiqligini tekshirish ko‘nikmasini shakllantirish;

– shariat boshqaruvi tizimida tashqi auditning o‘rni, mustaqilligi va xulosa berish tartibini o‘rgatish;
– kasbiy etika va mustaqillik tamoyillariga muvofiq qaror qabul qilish madaniyatini singdirish;
– tinglovchini malaka imtihonining test formatida ishlashga tayyorlash.

III. TINGLOVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

3.1. Kursga Nizomda «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» sertifikati nomzodlariga qo‘yilgan quyidagi talablarga bir vaqtda javob beruvchi shaxslar qabul qilinadi:

– «Islom moliyasi bo‘yicha buxgalter» malaka sertifikatiga ega bo‘lish;
– amaldagi auditor malaka sertifikatiga ega bo‘lish.

3.2. Auditor malaka sertifikati ushbu sertifikat uchun asos sertifikat hisoblanadi. Asos sertifikatning amal qilishi tugatilgan taqdirda, «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» sertifikatining amal qilishi ham tugatiladi.

3.3. Standartlarning asl matni bilan ishlash uchun ingliz tilini o‘qish darajasida bilish tavsiya etiladi, biroq bu majburiy shart emas — mashg‘ulotlar va imtihon o‘zbek tilida o‘tkaziladi.

IV. KURS HAJMI VA TUZILMASI

4.1. Kursning umumiy hajmi — 48 auditoriya soati (1 akademik soat — 45 daqiqa) va 48 soat mustaqil ta’lim. Tavsiya etiladigan davomiylik — 6 hafta (haftasiga 8 auditoriya soati). Auditoriya soatlari cheklangani sababli standartlar matnini mustaqil o‘qish va topshiriqlarni bajarish o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

4.2. Modullarning soatlar taqsimoti va malaka imtihonidagi ulushi:

№	Modul nomi	Ma’ruza	Amaliy	Jami soat	Imtihondagi ulushi, %
M1	Shariat asoslari va AAOIFI shariat standartlari	4	—	4	10
M2	AAOIFI moliyaviy hisobot standartlari (FAS)	10	4	14	30
M3	AAOIFI boshqaruv standartlari (GS)	4	—	4	10
M4	AAOIFI audit standartlari va tashqi shariat auditi	8	4	12	20
M5	AAOIFI kasbiy etikasi	4	—	4	10
M6	Amaliy masalalar va keyslar	—	10	10	20
	JAMI	**30**	**18**	**48**	**100**

Izoh 1: soatlar taqsimoti imtihon ulushiga imkon qadar moslashtirilgan. Audit moduliga qo‘shimcha soat ajratilgan, chunki ASIFI 6 «Tashqi shariat auditi» va SOAA standartlari ushbu sertifikat uchun mazmunan asosiy hisoblanadi.

Izoh 2: «Islom moliyasi bo‘yicha ichki auditor» sertifikati bilan taqqoslaganda modullar tarkibi va imtihondagi ulushi bir xil bo‘lib, farq audit moduli mazmunida — bu yerda urg‘u tashqi shariat auditi va mustaqil ishonch topshirig‘iga qaratilgan.

V. KUTILAYOTGAN O‘QUV NATIJALARI

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchi quyidagi malakalarga ega bo‘ladi:

- shariatga muvofiqlik mezonlarining iyerarxiyasini aniqlash va audit topshirig‘ida to‘g‘ri manbaga tayanish;
- tashqi shariat auditi topshirig‘ining turini (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki attestatsion) tanlash, predmet va mezonlarni belgilash;
- topshiriqni rejalashtirish: tashkilotni va uning muhitini o‘rganish, xatarlarni baholash, materiallik va namuna hajmini belgilash;
- murobaha, mudoraba, musharaka, ijara, salam, istisno’, vakala va sukuk bitimlarini shariat talablariga muvofiqligi bo‘yicha tekshirish;
- AAOIFI FAS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni va oshkor qilishning to‘liqligini tekshirish;
- investitsiya hisobvaraqlari bo‘yicha foyda taqsimoti va xatar zaxiralari harakatining to‘g‘riligini baholash;
- ichki audit va shariatga muvofiqlik funksiyasi ishidan hamda ekspert xizmatidan foydalanish bo‘yicha qaror qabul qilish;
- yetarli va ishonchli audit dalillarini to‘plash hamda ish qog‘ozlarini talab darajasida rasmiylashtirish;
- aniqlanmalarni bayon etish, tashqi shariat auditori hisobotini tuzish va zarur hollarda uni modifikatsiyalash;
- mustaqillik va xolislikka tahdidlarni aniqlash va tegishli himoya choralarini qo‘llash.

VI. MODULLARNING MAZMUNI

Modul 1. Shariat asoslari va AAOIFI shariat standartlari — 4 soat (10%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
1.1	Islom moliyasining shariat asoslari: manbalar, fiqh al-muomalot tamoyillari, ribo, g‘arar, maysir va harom faoliyatdan qochish, al-g‘unm bi-l-g‘urm qoidasi. O‘RQ-1126-son Qonunda nazarda tutilgan islomiy moliya operatsiyalari va ularning shartnomaviy tabiati: murobaha, mudoraba, musharaka, ijara, salam, istisno’, vakala, sukuk va takoful.	2
1.2	AAOIFI shariat standartlari tizimi va undan audit mezoni sifatida foydalanish: bitim predmetiga qo‘yiladigan shartlar, mulk huquqi va xatarning o‘tishi, bahoni va foydani belgilash tartibi, kafolat va garov — har biri bo‘yicha tekshirish nuqtalarini aniqlash. Shariatga muvofiqlik mezonlarining iyerarxiyasi va ziddiyat yuzaga kelganda ustuvorlik tartibi. Shariatga muvofiq bo‘lmagan daromadni aniqlash, ajratish va tozalash (purification) tartibini tekshirish.	2
	Modul bo‘yicha jami	**4**

Modul 2. AAOIFI moliyaviy hisobot standartlari (FAS) — 14 soat (30%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
2.1	AAOIFI moliyaviy hisobot bo‘yicha kontseptual asosi (2020-yil tahriri) va FAS 1 «Moliyaviy hisobotlarda umumiy taqdimot va oshkor qilish» (2021-yil tahriri): hisobot to‘plami tarkibi, kvazi-kapital, balansdan tashqari boshqariladigan aktivlar, izohlar. Hisobotni auditdan o‘tkazishda oshkor qilish to‘liqligini baholash.	4
2.2	FAS 28 «Murobaha va boshqa kechiktirilgan to‘lovli sotuvlar» va FAS 32 «Ijara»: tan olish, foydani taqsimlash, amortizatsiya va qoldiq qiymat, muddatidan oldin tugatish. Ushbu bitimlar bo‘yicha tipik xato va noto‘g‘ri tasniflash xatarlari.	4
2.3	FAS 51 «Ishtirokchilik loyihalari» (mudoraba va musharaka) hamda FAS 52 «Salam va istisno» va FAS 53 «Istisno asosidagi qurilish shartnomalari»: kapital qo‘yilmasi, foyda-zarar taqsimoti, bajarilish darajasi bo‘yicha daromadni tan olish.	2
2.4	FAS 31 «Investitsiya agentligi», FAS 45 «Kvazi-kapital (investitsiya hisobvaraqlari bilan birga)», FAS 33 va FAS 34 (sukuk): foyda taqsimlash metodologiyasi, mudorib ulushi, IAH huquqlarini oshkor qilish, sukukni tasniflash va o‘lchash.	2
2.5	FAS 30 «Qadrsizlanish, kredit yo‘qotishlari va zarar keltiruvchi majburiyatlar» va FAS 35 «Xatar zaxiralari»: baholash mulohazalarining asoslanganligini tekshirish. Qisqacha sharh: FAS 39, FAS 40, FAS 42, FAS 43, FAS 50, FAS 41, FAS 44, FAS 46, FAS 47, FAS 48 va FAS 36.	2
	Modul bo‘yicha jami	**14**

Modul 3. AAOIFI boshqaruv standartlari (GS) — 4 soat (10%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
3.1	GS 1 (2024-yil tahriri) «Shariat boshqaruvi asoslari»: shariat boshqaruvi tizimining tarkibiy qismlari va uchta himoya chizig‘i. Tashqi shariat auditining tizimdagi o‘rni va ichki shariat auditidan farqi;	2
3.2	GS 19, GS 20 va GS 21 (Shariat nazorati kengashini tayinlash, funksiyalari va hisoboti), GS 9 «Shariatga muvofiqlik funksiyasi», GS 11 «Ichki shariat auditi», GS 8, GS 22 va GS 23 — tashqi auditor uchun boshqaruv muhitini baholash va audit qamrovini belgilashdagi ahamiyati. Maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha standartlar sharhi: GS 12, GS 13, GS 14, GS 15, GS 10 va GS 17.	2

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
	Modul bo‘yicha jami	**4**

Modul 4. AAOIFI audit standartlari va tashqi shariat auditi — 12 soat (20%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
4.1	AAOIFI audit standartlari tizimi va uning rivojlanishi. SOAA 1 «Audit asoslari»: audit va ishonch topshiriqlarining doirasi, asosiy tamoyillar, kasbiy skeptitsizm, oqilona va cheklangan ishonch darajalari o‘rtasidagi farq.	2
4.2	Topshiriqni qabul qilish va rejalashtirish: topshiriq shartlarini kelishish, mustaqillikni baholash, tashkilot va uning muhitini o‘rganish, xatarlarni baholash, materiallikni belgilash, auditning firibgarlik va xatoga nisbatan mas’uliyati.	2
4.3	SOAA 4 «Shariat tamoyillari va qoidalariga muvofiqlikni baholash bo‘yicha audit talablari»: muvofiqlik mezonlarini belgilash, tekshiruv predmeti, dalil to‘plash muolajalari, muvofiqsizlik holatlarini baholash va tasniflash.	2
4.4	ASIFI 6 «Tashqi shariat auditi (islom moliya institutining shariat tamoyillari va qoidalariga muvofiqligi bo‘yicha mustaqil ishonch topshirig‘i)»: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va attestatsion topshiriqlar, predmet va predmet axboroti, muvofiqlik mezonlari iyerarxiyasi, asosiy muolajalar va muhim mulohazalar, auditor hisoboti formatlari.	4
4.5	Moliyaviy hisobot auditi bilan bog‘lanish: AAOIFI FAS asosida tuzilgan hisobotni tekshirish xususiyatlari, ichki audit va shariatga muvofiqlik funksiyasi ishidan foydalanish, ekspert xizmatidan foydalanish, auditor xulosasini modifikatsiyalash asoslari va ish qog‘ozlarini rasmiylashtirish.	2
	Modul bo‘yicha jami	**12**

Modul 5. AAOIFI kasbiy etikasi — 4 soat (10%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
5.1	Islom moliyasi mutaxassislari uchun AAOIFI kasbiy etika kodeksi: shariatga sodiqlik, amonat, sidq, adolat va mas’uliyat tamoyillari; kasbiy salohiyat, e’tibor va maxfiylik talablari.	2
5.2	Tashqi auditor uchun mustaqillik va xolislik: moliyaviy manfaatdorlik, uzoq muddatli hamkorlik, audit bilan bir vaqtda boshqa xizmatlar ko‘rsatish, tanishlik va tazyiq tahdidlari hamda himoya choralari. GS 16 «Etikani joriy etishning institutsional asosi». Auditorlar palatasining kasbiy etika normalari va malaka imtihoni qatnashchilarining odob-axloq kodeksi.	2
	Modul bo‘yicha jami	**4**

Modul 6. Amaliy masalalar va keyslar — 10 soat (20%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
6.1	Keys: murobaha va ijara bitimlari to‘plamini shariat talablariga muvofiqligi bo‘yicha tekshirish — hujjatlar ketma-ketligi, mulk huquqining o‘tishi, baho va foydaning belgilanishi, kechikish holatlari.	2
6.2	Keys: mudoraba va musharaka bitimlari hamda investitsiya hisobvaraqlari bo‘yicha foyda taqsimotini, mudorib ulushi va xatar zaxiralari harakatini qayta hisoblash.	2
6.3	Keys: AAOIFI FAS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni tekshirish, oshkor qilishdagi kamchiliklarni aniqlash va ularning materialligini baholash.	2

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
6.4	Amaliy mashg‘ulot: tashqi shariat auditi topshirig‘ini rejalashtirish — predmet va mezonlarni belgilash, xatarlarni baholash, materiallik va namuna hajmini aniqlash, audit dasturi va ish qog‘ozlarini tayyorlash.	2
6.5	Amaliy mashg‘ulot: aniqlanmalarni bayon etish, tashqi shariat auditori hisobotini tuzish va uni modifikatsiyalash holatlari. Malaka imtihoni formatidagi yakuniy test mashqi va uni tahlil qilish.	2
	Modul bo‘yicha jami	**10**

VII. BAHOLASH VA SERTIFIKATLASH TARTIBI

Joriy baholash

7.1. Joriy baholash o‘quv tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi va har bir modul yakunidagi amaliy topshiriqlar hamda test mashqlarini o‘z ichiga oladi. Tinglovchi mashg‘ulotlarning kamida 75 foizida qatnashgan va barcha amaliy topshiriqlarni bajargan taqdirda kursni tamomlaganligi to‘g‘risidagi hujjatni oladi.

7.2. Kursni tamomlash to‘g‘risidagi hujjat malaka sertifikati hisoblanmaydi va o‘z-o‘zidan kasbiy huquq bermaydi.

Malaka imtihoni

7.3. Malaka imtihoni Palataning Imtihon komissiyasi tomonidan test markazlarida, faqat oflayn shaklda, kompyuterda o‘tkaziladi. Imtihon sessiyalari har 2 oyda bir marta tashkil etiladi; jadval kalendar yil boshlanishidan kamida 30 kun oldin e’lon qilinadi.

7.4. Imtihon parametrlari:

Savollar soni	100 ta test savoli (amaliy masalalar ham test shaklida beriladi)
Davomiyligi	3 soat
Maksimal ball	100 ball
O‘tish bali	kamida 75 ball (75%)
Baholash	avtomatik; natija imtihon tugashi bilan darhol e’lon qilinadi
To‘lov	har bir imtihon arizasi uchun BHM ning 3 baravari
Ruxsat etiladi	faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat; kompyuterda Excel ochib beriladi

7.5. Imtihon savollarining bo‘limlar bo‘yicha ulushi Nizomga muvofiq quyidagicha belgilangan:

Imtihon bo‘limi	Tegishli modul	Ball
AAOIFI shariat standartlari	M1	10
AAOIFI buxgalteriya hisobi standartlari (FAS)	M2	30
AAOIFI boshqaruv standartlari	M3	10
AAOIFI audit standartlari	M4	20
AAOIFI etika standarti	M5	10
Amaliy masalalar (keyslar)	M6	20

Imtihon bo‘limi	Tegishli modul	Ball
JAMI		**100**

7.6. Imtihondan o‘ta olmagan nomzod keyingi imtihon sessiyasida yangi ariza va to‘lov asosida qayta topshirish huquqiga ega. Imtihon natijalari yuzasidan nomzod natija e’lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga elektron shaklda ariza berishi mumkin; ariza 5 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va qaror 1 ish kuni ichida nomzodga yuboriladi.

Sertifikatning amal qilish muddati va uzaytirilishi

7.7. «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» sertifikati dastlab 5 yil muddatga beriladi. Keyinchalik u 10 yilga, so‘ngra muddatsiz uzaytiriladi. Sertifikat elektron shaklda, raqam va QR-kod bilan rasmiylashtiriladi hamda Palataning ochiq elektron reyestrida e’lon qilinadi.

7.8. Uzaytirish uchun ariza sertifikat muddati tugashidan 3 oy oldin, lekin 6 oydan erta bo‘lmagan muddatda Imtihon komissiyasiga elektron shaklda beriladi. Arizaga malaka oshirish kurslaridan o‘tganlik guvohnomalari, amaldagi auditor malaka sertifikati nusxasi, to‘lov hujjati (BHM ning 3 baravari) va mavjud bo‘lsa AAOIFI sertifikati nusxasi ilova qilinadi.

7.9. Uzaytirish shariat auditi bo‘yicha malaka imtihoni orqali yoki Nizomda belgilangan imtihonsiz asos mavjud bo‘lganda imtihonsiz amalga oshiriladi. Yangi muddat sertifikatda ko‘rsatilgan amal qilish muddati tugagan sanadan boshlab hisoblanadi.

Malaka oshirish

7.10. Sertifikat har yili malaka oshirish sharti bilan amal qiladi: sertifikat olingan yildan keyingi yildan boshlab har yili akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv tashkilotida Palata tasdiqlagan dastur bo‘yicha 40 soat hajmida malaka oshirish kursini o‘tash talab etiladi.

7.11. Malaka oshirish talabi bajarilmasa, sertifikatning amal qilishi to‘xtatib turiladi. Belgilangan muddatda — ko‘pi bilan 6 oy ichida — talab bajarilmagan taqdirda sertifikatning amal qilishi Malaka komissiyasi qarori bilan tugatiladi.

VIII. O‘QITISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

8.1. Kurs kunduzgi (offline), masofaviy (online) yoki aralash shaklda tashkil etilishi mumkin. Amaliy masalalar moduli (M6) barcha shakllarda o‘qituvchi ishtirokida jonli (sinxron) o‘tkazilishi shart.

8.2. Kurs jadal (intensiv) formatda o‘tkazilishini hisobga olib, har bir mashg‘ulotdan oldin tinglovchiga tegishli standart matni va tayyorgarlik topshirig‘i oldindan yuborilishi tavsiya etiladi — auditoriya vaqti asosan tahlil va amaliy ishga ajratiladi.

8.3. Tavsiya etiladigan metodlar:

- interaktiv ma’ruza va standart matnini birgalikda tahlil qilish;
- real bitim hujjatlari (shartnoma, ariza, hisob-faktura, o‘tkazma) to‘plami asosida muvofiqlik tekshiruvi mashqlari;
- audit dasturi va ish qog‘ozlarini elektron jadvallarda mustaqil to‘ldirish;
- real islom banki hisobotlari asosida keys-stadi tahlili;

– kichik guruhlarda muhokama, etik dilemmalar va auditor-tekshiriluvchi suhbati bo‘yicha rolli o‘yinlar;
– AAOIFI standartlarining asl (ingliz tilidagi) matni bilan ishlash mashqlari;
– malaka imtihoni formatidagi test mashqlari, shu jumladan amaliy masalalarning test ko‘rinishi bilan ishlash.

8.4. O‘quv tashkiloti har bir tinglovchini AAOIFI standartlarining amaldagi tahriri (elektron yoki bosma) bilan ta’minlashi lozim.

8.5. Malaka imtihonida hisob-kitob uchun faqat kompyuterdagi Excel dasturidan foydalanishga ruxsat berilganini hisobga olib, amaliy mashg‘ulotlar elektron jadvallarda, kalkulyatorsiz bajarilishi tavsiya etiladi.

IX. O‘QUV TASHKILOTI VA O‘QITUVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

9.1. Kursni tashkil etish huquqi Palata akkreditatsiyasidan o‘tgan oliy ta’lim muassasalariga beriladi. Akkreditatsiya uchun uchta shart talab etiladi:

– ta’lim faoliyati bo‘yicha tegishli litsenziyaning mavjudligi;
– ushbu dastur asosida ishlab chiqilgan va o‘quv tashkiloti tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi hamda o‘quv rejasining mavjudligi;
– xalqaro (AAOIFI) yoki Palataning tegishli malaka sertifikatiga ega o‘qituvchilar bilan ta’minlanganlik.

9.2. Akkreditatsiya arizasi Palataning rasmiy veb-sayti orqali elektron shaklda beriladi va unga yuqoridagi hujjatlar ilova qilinadi.

9.3. Modullarni o‘qitishga jalb etiladigan o‘qituvchi quyidagi talablardan kamida bittasiga javob berishi lozim:

– AAOIFI kasbiy sertifikatlaridan biriga (CSAA, CIPA, CSA, CPSS, CPAAGE, CPFAS, CSE, DipIFR) ega bo‘lish;
– Palataning «Islom moliyasi bo‘yicha auditor» yoki «Islom moliyasi bo‘yicha ichki auditor» malaka sertifikatiga ega bo‘lish.

9.4. Audit moduli (M4) va amaliy keyslar (M6) ni o‘qitishga islom moliya institutlarida shariat auditi yoki moliyaviy hisobot auditi bo‘yicha amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish talab etiladi. 1- va 5-modullarni o‘qitishda shariat sohasi mutaxassisi ishtirok etishi tavsiya etiladi.

9.5. Akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv tashkiloti sertifikatlashga tayyorlov kurslari bilan bir qatorda har yilgi 40 soatlik malaka oshirish kurslarini tashkil etish huquqiga ega bo‘ladi.

X. O‘QUV-USLUBIY VA AXBOROT TA’MINOTI

Asosiy manbalar

– AAOIFI. Auditing Standards: SOAA 1 «Framework of Auditing», SOAA 4 «Auditing Requirements for Assessing Compliance with Shari’ah Principles and Rules», ASIFI 6 «External Shari’ah Audit».

– AAOIFI. Governance Standards (GS 1–23), xususan GS 1 (Revised 2024) «Shari’ah Governance Framework» va GS 11 «Internal Shari’ah Audit».
– AAOIFI. Financial Accounting Standards (FAS 1–53) va Conceptual Framework for Financial Reporting (Revised 2020).
– AAOIFI. Shari’ah Standards (SS 1–62). Manama: AAOIFI (amaldagi tahrir).
– AAOIFI. Code of Ethics for Islamic Finance Professionals.

Qo‘shimcha adabiyotlar

– Xalqaro audit standartlari (ISA) va ishonch topshiriqlari bo‘yicha xalqaro standart (ISAE 3000) — metodologik qiyoslash uchun.
– Syeda Fahmida Habib. Fundamentals of Islamic Finance and Banking. Wiley, 2018.
– Simon Archer, Rifaat Ahmed Abdel Karim (eds.). Islamic Finance: The New Regulatory Challenge. 2nd ed. Wiley, 2013.
– Islamic Financial Services Board (IFSB) standartlari — shariat boshqaruvi va oshkor qilish bo‘yicha talablar.

Milliy normativ hujjatlar

– O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-son Qonuni — islomiy bank faoliyatini joriy etishga oid qo‘shimcha va o‘zgartirishlar.
– «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-677).
– «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-404) va buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son qarori.
– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy moliyalash operatsiyalariga oid normativ hujjatlari.
– Auditorlar palatasining islom moliyasi bo‘yicha sertifikatlash to‘g‘risidagi Nizomi hamda malaka imtihoni qatnashchilarining odob-axloq kodeksi.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu dastur AAOIFI standartlari yangilanishiga qarab, lekin yiliga kamida bir marta ko‘rib chiqiladi. Dasturga o‘zgartirishlar Palata Metodologiya qo‘mitasining qarori bilan kiritiladi va Palataning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

11.2. Standartlarning yangi tahrirlari chiqqan taqdirda imtihon savollari bazasi ular kuchga kirgan sanadan boshlab kamida uch oy o‘tgach yangilanadi. Bu haqda o‘quv tashkilotlari va nomzodlar oldindan xabardor qilinadi.

11.3. Dastur talablarining bajarilishi ustidan nazorat Auditorlar palatasi tomonidan akkreditatsiya doirasida amalga oshiriladi.